

YAPONIYADAGI MAXSUS TA'LIMNING HUQUQIY ASOSLARINNGI YARATILISHI TARIXI

O'zMU Tarix fakulteti

“Jahon tarixi” kafedrası magistranti

Xamzayev Komil

hamzayevkomol52@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda Yaponiyada nogironligi bo'lgan shaxslar ta'limining huquqiy asoslari tarixiy rivojlanish jarayonida tahlil qilinadi. Tadqiqotda maxsus ta'lim tizimining shakllanishi, uning ajratilgan modeldan inklyuziv ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tishi hamda bu jarayonda amalga oshirilgan huquqiy islohotlar yoritilgan. Shuningdek, individual yondashuv, maxsus sinflar va resurs xonalarining joriy etilishi, hamda maxsus ehtiyojli ta'lim konsepsiyasining rivojlanishi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Yaponiyada maxsus ta'lim tizimi sezilarli taraqqiyotga erishgan bo'lsa-da, uning to'liq inklyuziv modelga o'tishida huquqiy mexanizmlar va amaliy qo'llab-quvvatlash tizimlari hali ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: maxsus ta'lim, inklyuziv ta'lim, Yaponiya ta'lim tizimi, nogironligi bo'lgan shaxslar, huquqiy asoslar, ta'lim islohotlari, individual yondashuv

Аннотация

В данной работе анализируются правовые основы образования лиц с ограниченными возможностями в Японии в исторической динамике. Рассматриваются этапы формирования системы специального образования, переход от сегрегированной модели к инклюзивному обучению, а также проведённые правовые реформы. Особое внимание уделяется внедрению индивидуализированного подхода, созданию специальных классов и ресурсных центров, а также развитию концепции образования для лиц с особыми потребностями. Результаты исследования показывают, что, несмотря на

значительный прогресс, система образования Японии ещё нуждается в усилении правовых механизмов и практических инструментов для полноценной реализации инклюзивного образования.

Ключевые слова: специальное образование, инклюзивное образование, система образования Японии, лица с ограниченными возможностями, правовые основы, образовательные реформы, индивидуальный подход

Abstract: This study examines the legal foundations of education for persons with disabilities in Japan within a historical framework. It analyzes the development of the special education system, the transition from a segregated model to an inclusive education system, and the legal reforms implemented throughout this process. Particular attention is given to individualized support approaches, the establishment of special classes and resource rooms, and the evolution of special needs education. The findings indicate that although Japan has made significant progress, the full realization of inclusive education still requires stronger legal mechanisms and effective practical support systems.

Keywords: special education, inclusive education, Japanese education system, persons with disabilities, legal framework, educational reforms, individualized approach

1.Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy ta'lim tizimida nogironligi bo'lgan bolalarning teng huquqli ta'lim olishini ta'minlash va ularni jamiyatga to'liq integratsiya qilish masalasi global miqyosda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo'nalish UNESCO hamda BMT tomonidan ilgari surilgan inklyuziv ta'lim tamoyillari, xususan Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya asosida huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Shu nuqtai nazardan, Yaponiyada maxsus ta'limning huquqiy asoslari shakllanishi va uning ajratilgan (segregatsion) modeldan inklyuziv ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tishi ilmiy va amaliy jihatdan alohida qiziqish uyg'otadi, chunki mazkur mamlakatda Maktab ta'limi to'g'risidagi qonun hamda Ta'limning asosiy qonuni doirasida amalga oshirilgan islohotlar nogironligi bo'lgan bolalar uchun ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, o'qitishning individual yondashuvlarini joriy etish va ta'lim tizimini insonparvarlashtirishga xizmat qilgan[1]. Shu bois, Yaponiya tajribasini o'rganish O'zbekistonda inklyuziv ta'limni

rivojlantirish, huquqiy bazani takomillashtirish va amaliy mexanizmlarni joriy etish nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyatga ega.

Uning tajribasi ushbu sohada kerakli islohotlarni amalga oshirish, o'qituvchilar malakasini oshirish va yordamchi texnologiyalardan foydalanish bo'yicha qimmatli ma'lumotlar beradi. O'zbekiston uchun Yaponiya inklyuziv ta'lim amaliyotini o'rganish ta'lim standartlariga javob beradigan yanada adolatli va samarali ta'lim tizimini yaratish uchun katta hissa qo'shishi mumkin.

2. Tadqiqot metodlari va adabiyotlar tahlili.

Mazkur tadqiqotda Yaponiyada nogironligi bo'lgan shaxslar ta'limining huquqiy asoslarini o'rganishda kompleks metodologik yondashuv qo'llanilib, tarixiy-tahliliy metod orqali maxsus ta'lim tizimining shakllanishi va evolyutsiyasi 1907-yildagi "Maktab ta'limi to'g'risida"gi qonundan boshlab izchil tahlil qilindi, qiyosiy-huquqiy metod yordamida esa milliy qonunchilik xalqaro tajriba bilan solishtirilib, uning o'ziga xos jihatlari aniqlandi; shuningdek, sistemali yondashuv asosida maxsus ta'lim tizimi huquqiy normalar, institutsional tuzilmalar va amaliy mexanizmlarning o'zaro bog'liq yaxlit tizimi sifatida ko'rib chiqildi hamda empirik materiallarni umumlashtirish orqali xorijiy tadqiqotchilar va mutaxassislarning ilmiy qarashlari tizimlashtirildi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Yaponiyada maxsus ta'lim masalasi ko'plab xorijiy va milliy olimlar tomonidan turli jihatlarda o'rganilgan. Xususan, Furukava maxsus ta'limning huquqiy rivojlanishini tahlil qilib, unda davlat siyosatining asosiy maqsadi samarali fuqarolarni tayyorlashga qaratilganini ta'kidlaydi. Shimizu esa tizimda uzoq vaqt davomida huquqlarga asoslangan yondashuv yetarli darajada shakllanmaganini qayd etadi. Forlin, Kawai va Higuchi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Yaponiyada inklyuziv ta'limga o'tish jarayonida o'qituvchilar tayyorgarligi muhim omil ekanligini asoslaydi.

Hayashi va Okuhira ishlari nogironligi bo'lgan shaxslarning mustaqil hayot kechirish harakati bilan ta'lim tizimi o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi, Gordon esa "Maktab ta'limi to'g'risida"gi qonunning amaliy ahamiyatini chuqur tahlil qiladi. Shuningdek, Hayashi va Tobin, Haynes va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar maxsus

ehtiyojli o'quvchilarning umumiy ta'lim tizimiga integratsiyasi bilan bog'liq muammolarni ko'rsatib beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ham ko'rsatdiki, Yaponiyada maxsus ta'lim tizimi dastlab segregatsion model asosida shakllangan bo'lsa-da, keyinchalik u bosqichma-bosqich inklyuziv yondashuv tomon rivojlangan. Biroq, ayrim tadqiqotchilar bu jarayonning yetarlicha chuqur emasligini, qonunchilikda majburiy mexanizmlar yetishmasligini va amaliyotda ayrim cheklovlar saqlanib qolayotganini tanqidiy baholaydilar.

3. Tadqiqot natijalari.

Yaponiyada nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'limi to'g'risidagi qonunda nogironligi bo'lgan o'quvchilarning imkon qadar kam cheklovli muhitda ta'lim olish huquqi kafolatlanadi[2]. Jumladan, 1907-yilda qabul qilingan "Maktab ta'limi to'g'risida"gi qonunda maxsus ta'lim nimadan iborat ekanligiga aniq ta'rif berilmagan edi. Biroq, 1909-yildagi Ta'lim vazirligini tashkil etish to'g'risidagi qonunda maxsus ta'lim ixtisoslashtirilgan maktablarda beriladigan ta'limga taalluqli deb aniq qayd etilganligini ko'rishimiz mumkin. Keyinchalik, ushbu qonunga kiritilgan o'zgartirishlar oddiy maktablar tarkibiga maxsus ta'lim sinflarini kiritish uchun keng imkoniyat yaratdi[3]. Majburiy maxsus ta'lim tizimini joriy etildi. Bu islohotgacha ko'plab nogironligi bor bolalar rasmiy ta'limdan chetlashtirilib, uyda qolib ketishyotgan edi. Yangi tizimning asosiy maqsadi nogironligi bo'lgan barcha bolalarning davlat ta'limiga kirishini ta'minlash edi. O'shanda nogironligi bor bolalarni alohida muassasalarga joylashtirish yoki oddiy umumta'lim maktablariga kiritish masalasi butun mamlakat miqyosida muhokama qilingan edi. Majburiy maxsus ta'lim tizimi nogironligi bor bolalarning davlat ta'limiga teng kirishini ta'minlash o'rniga, ular uchun alohida ta'lim yo'nalishini samarali yaratdi[4]. Keyinchalik nogiron o'quvchilarni oddiy sinflarga qo'shishga qaratilgan bir nechta huquqiy ishlar amalga oshirildi. Biroq, bu ishlarning aksariyati mahalliy bosqichda hal etildi va rasmiy sud qarorlari qabul qilinishidan oldin tugatildi[5]. Yaponiya maktab ta'limi to'g'risidagi qonunga liberal munosabatlarni o'z ichiga olgan o'zgartirishlar kiritdi va shu tariqa, yengil nogironligi bo'lgan bolalarga, asosan, ixtisoslashtirilgan ta'lim maktablarga qatnash uchun rasman ruxsat berildi.

Hukumat mamlakat ta'lim tizimiga yangi bosqichli o'zgarishlarni tatbiq etish orqali katta yutuqlarga erishdi, ya'ni og'ir nogironligi bo'lgan bolalar mahalliy ta'lim kengashi tomonidan ta'lim olishga imkonli deb topilsa, davlat maktablariga joylashtirilishi mumkin edi. Ushbu yangi tashabbus orqali "maxsus ta'lim" ni "maxsus ehtiyojli ta'lim" deb o'zgartirishdi, bundan maqsad nogiron degan so'zdan voz kechish edi. Uning istiqbolli yutuqlariga qaramay,[6] tanqidchilar islohotni asosan yuzaki xususiyatga ega bo'lib, mavjud qonunchilik bazasiga juda kam o'zgarishlar kiritganlikda aybladilar. Ularning ta'kidlashicha, tizim hali ham huquqlarga asoslangan yondashuvga ega emas va inklyuzivlik tamoyillarini qabul qila olmaydi. Taniqli yapon islohotchisi Furukava esa yapon maxsus ta'limining huquqiy tarixini kuzatdi va hukumat an'anaviy ravishda global miqyosda milliy raqobatbardoshlikni oshirish uchun samarali fuqarolarni yetishtirishga e'tibor qaratganini yuksak baholadi[7].

1917-yilda Yaponiya nogiron o'quvchilarning huquqlarini hurmat qilishni kuchaytirish maqsadida o'zining "Asosiy ta'lim to'g'risida"gi qonunini qayta ko'rib chiqdi. Biroq, tanqidchilar islohot, birinchi navbatda, hukumatning ta'lim tizimidagi nufuzini oshirishga qaratilganini ta'kidlamoqda. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, ushbu tuzatishdan oldin asl maqsad davlat nazoratini kuchaytirish va xalq ta'limining diqqatini akademik natijalarga yo'naltirish edi. O'zgartirilgan "Asosiy ta'lim to'g'risida"gi qonunning 1-moddasiga ko'ra, ta'limning maqsadi "shaxsni har tomonlama rivojlantirish, fuqarolarni aqlini va tanasini sog'lom qilib tarbiyalashga intilishdir" va ushbu qonun Yaponiyaning ta'lim tizimi haqida qo'shimcha ma'lumot beradi[8]. U turli maktab turlarini belgilaydi va maxsus maktablar ko'rish, eshitish, aqliy va jismoniy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, tibbiy holatida muammosi bo'lgan o'quvchilarga xizmat ko'rsatishini ko'rsatadi. Ushbu maktablar o'quvchilarga kundalik hayot va mustaqillik uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallashga yordam berishni maqsad qilgan[9]. Qonunning 74-moddasida alohida ehtiyojli maktablar so'rov bo'yicha umumiy ta'lim muassasalariga yo'l-yo'riq ko'rsatishi shart. Shu bilan birga, 81-modda oddiy maktablar – bolalar bog'chalari, boshlang'ich va o'rta maktablar – muayyan nogiron o'quvchilarga ta'lim berishga ruxsat beradi. Bundan tashqari, qonun ta'lim, madaniyat, sport, fan va

texnologiya vazirligining siyosat bayonotlarida tez-tez eslatib o'tilganiga qaramay, diqqat yetishmasligi ya'ni giperaktivlik buzilishi, o'rganishdagi nuqsonlar yoki yuqori funksional autizm kabi holatlarni nazarda tutmaydi[10]. Bu yuqori darajadagi nogironligi bo'lgan o'quvchilarni aniqlashda ham, asosiy sinflarda tegishli yordam ko'rsatishda ham jimkoniyati cheklanganiy qiyinchiliklar tug'dirmaydi. "Maktab ta'limi to'g'risida" gi qonunni ijro etish tartibi ushbu amaliyotlarni bir tomondan osonlashtirgan bo'lsa boshqa tomondan ba'zi qator savollar tug'dirdi desak to'g'rib bo'ladi.

5-modda mahalliy ta'lim kengashlaridan ota-onalarni o'z farzandlarini maktabga joylashtirish to'g'risida xabardor qilishni talab qiladi, bundan 22.3-moddada sanab o'tilgan kabi og'ir nogiron o'quvchilar mustasno. Bunday hollarda, ota-onalar farzandini umumiy maktabga qabul qilish to'g'risida rasmiy xabarnoma oladilar[11].

1959-yilda qabul qilingan "Maktab salomatligi va xavfsizligi to'g'risida"gi qonunga ko'ra, Yaponiyadagi barcha bolalar maktabga borishdan oldin tibbiy ko'rikdan o'tishlari shart. Ushbu jarayon 1-aprelgacha olti yoshga to'lgan bolalar uchun ro'yxatga olishdan oldin yilning 30-noyabrigacha o'tkazilishi kerak. Agar ushbu tekshiruv vaqtida nogironlik aniqlansa, 13-moddaga muvofiq tashkil etilgan maktabga rahbarlik qilish qo'mitasi mahalliy ta'lim kengashi tomonidan chaqiriladi. Ushbu qo'mita tegishli ta'lim joylarini muhokama qilish uchun mas'uldir, bu ko'pincha nogironligi bor bolalarning maxsus ta'lim maktablariga yo'naltirilishiga olib keladi, nogironligi bo'lmagan bolalar esa umumiy maktablarda o'qiydi[12]. Mavjud maxsus ta'lim tuzilmasi nuqtai nazaridan, ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiya vazirligining 2009-yilgi hisobotida Yaponiya bo'ylab 1026 ta maxsus ehtiyojli maktablar mavjudligi hujjatlashtirilgan. Ulardan 84 tasi ko'rishda nuqsoni bo'lgan, 116 tasi eshitish, 619 tasi aqliy, 282 tasi jismoniy, 124 tasi sog'lig'ida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabidir. Ushbu muassasalarning ba'zilari nogironlikning bir nechta toifalariga kiruvchi talabalarga xizmat qiladi. Yaponiyada majburiy ta'lim 1 dan 9-sinfgacha bo'lgan bo'lsa-da, maxsus ehtiyojli maktablar bolalar bog'chasidan to o'rta maktabgacha ta'lim beradi. Bu maktablar mustaqil faoliyat yuritadi va mustaqil modelga amal qiladi. Oddiy boshlang'ich va o'rta maktablarda nogironligi kamroq bo'lgan bolalar

uchun maxsus o'quv xonalari tashkil etiladi. 1940-yil holatiga ko'ra 124,166 o'quvchiga xizmat ko'rsatadigan 40,004 ta shunday sinf xonalari mavjud edi[13]. Yaponiyada o'rta maktabda ta'lim majburiy emasligi sababli, nogiron o'quvchilar oddiy o'rta maktablarga kirish uchun imtihon topshirishlari kerak. Oddiy maktablarda o'qiydigan bolalar ko'pincha maxsus ehtiyojli bolalarning maxsus maktablarga o'tishini qiyinlashtiradi, chunki maxsus ehtiyojli va oddiy bolalarga imtixonida bir hil sharoit yaratilib berilgan bu esa tabiiyki, ba'zi savollarni tug'diradi. Bu nogironligi bor bolalari bor oilalar uchun inklyuziv o'rta maktabga joylashtirishga to'sqinlik bo'lishi mumkin[14]. Taniqli tanqidchi Shimizu 60-yillarda Yaponiyada nogironligi bor bolalar va ularning oilalari huquqlarini himoya qilish uchun mustahkam asos yo'qligini ammo bu muammoning ustida amalga oshirilayotgan ishlar taqsinga sazavor ekanligini ta'kidlagan edi. Yapon tahlil jamiyati asoschisi Vatanabe ham o'z nutqida ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiya vazirligini maxsus ta'lim tizimidagi islohotlarga oid hisobotlarida "inson huquqlari" yoki "nogironligi bor bolalar huquqlari" kabi asosiy atamalarni kiritmagani uchun tanqid qilgan edi va bu muammo tezda hal etilgani bilan yodda qolgan.

Yaponiya ta'lim qonunchiligida nogironligi bor bolalar uchun zarur yordam xizmatlarini oddiy sinflarda ko'rsatilishini talab qiluvchi aniq qoidalar mavjud bo'lib, inklyuziv ta'lim bo'yicha murojatlar har doim jimkoniyati cheklanganiy tarzda ko'rib chiqiladi. Bundan farqli o'laroq, Yaponiya qonunchiligi ta'limni joylashtirish masalasini qo'llab-quvvatlash xizmatlarini ko'rsatish majburiyatidan ajratib turadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim to'g'risidagi qonuniga muvofiq, xizmatlar bolaning umumiy yoki maxsus ta'lim muassasasiga joylashtirilganidan qat'i nazar, taqdim etilishi kerak[15]. Bundan tashqari alohida ta'lim sharoitlarini yaxshilash tendentsiyasi ham qonunchilik, ham ijtimoiy munosabatlarda aks etadi.

1957-yilda Yaponiyada maxsus ta'lim tizimi rasmiy shakllanib, nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun alohida ta'lim modeli joriy etildi hamda uni modernizatsiya qilish maqsadida individuallashtirilgan yondashuv va inklyuziv elementlarni kiritish taklif qilindi [17]. Xususan, individual yordam rejalarini ishlab chiqish, maxsus ehtiyojlar bo'yicha koordinatorlar tayinlash, idoralararo hamkorlikni kuchaytirish va umumiy maktablarda

maxsus sinflarni rivojlantirish kabi chora-tadbirlar belgilandi. Biroq bu islohotlar amaliyotda to‘liq samara bermadi, chunki individual qo‘llab-quvvatlash rejalarining majburiy huquqiy kuchga ega emasligi hamda ota-onalar ishtirokining yetarli darajada ta‘minlanmagani ularning samaradorligini chekladi. Shu bilan birga, umumiy ta‘lim o‘qituvchilarining tayyorgarligi va jamiyatning inklyuzivlikka moslashuvi yetarli darajada bo‘lmagani ham muhim muammo bo‘lib qoldi. Umuman, Yaponiya maxsus ta‘lim tizimi inklyuziv modelga o‘tish yo‘lida muhim falsafiy va tashkiliy yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, uni to‘liq amalga oshirish uchun kuchliroq huquqiy mexanizmlar va tizimli o‘zgarishlar zarurligi yaqqol ko‘rinadi.

4. Xulosa. Yaponiyada nogironligi bo‘lgan shaxslar ta‘limining huquqiy asoslari tarixiy rivojlanish jarayonida dastlab ajratilgan (segregatsion) model asosida shakllanib, keyinchalik bosqichma-bosqich inklyuziv ta‘lim tamoyillariga yaqinlashgani kuzatiladi. 1907-yildagi “Maktab ta‘limi to‘g‘risida”gi qonun va keyingi normativ hujjatlar maxsus ta‘limni ixtisoslashgan muassasalar bilan bog‘lab, nogiron bolalarni tizimga jalb etgan bo‘lsa-da, ularni alohida yo‘nalishda saqlab qolgan; majburiy maxsus ta‘lim tizimi esa ta‘limga kirishni kengaytirgan, ammo inklyuzivlikni to‘liq ta‘minlamagan. Keyingi islohotlar oddiy maktablarda maxsus sinflar tashkil etish, individual yondashuvlarni joriy etish va “maxsus ta‘lim”dan “maxsus ehtiyojli ta‘lim”ga o‘tish orqali tizimni insonparvarlashtirishga xizmat qilgan bo‘lsa-da, bu o‘zgarishlar ko‘pincha yetarli huquqiy majburiy mexanizmlar bilan mustahkamlanmagan. Umuman, Yaponiyada maxsus ta‘lim evolyutsiyasi sezilarli institutsional va huquqiy taraqqiyotni namoyon etsa-da, uzoq vaqt davomida u huquqlarga asoslangan to‘liq inklyuziv modelga emas, balki ma‘muriy boshqaruvga tayangan tizim sifatida rivojlangan bo‘lib, bu tajriba inklyuziv ta‘limni takomillashtirish nuqtai nazaridan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Иқтибослар/Сноски/References:

1. UNESCO. (2009). *Policy guidelines on inclusion in education*. Paris: UNESCO. Retrieved from <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000177849>
2. Individuals with Disabilities Education Act, 20 U.S.C. § 1400 et seq. (originally enacted as Education for All Handicapped Children Act, 1975. P – 125.

3. Howard, P. The least restrictive environment: How to tell? *Journal of Law and Education*, 2004. P – 167.
4. Individuals with Disabilities Education Act (formerly the Education for All Handicapped Children Act of 1975), as amended by the Individuals with Disabilities Education Act of 1997, P – 105. and the Individuals with Disabilities Education Improvement Act of 2004, P - 108.
5. Furukawa, S. Seeking for inclusion presumption, Tokyo: Senshobo Press. Howard, P. (2004). The least restrictive environment: How to tell? *Journal of Law and Education*, 2003. P – 167.
6. Shimizu S. Education for children with moderate developmental disorder in America. Kamogaw Press. Kyoto: 2004, P – 32.
7. Forlin C., Kawai N., & Higuchi, S. Educational reform in Japan towards inclusion: are we training teachers for success? *International Journal Of Inclusive Education*, 2015. P – 314.
8. Hayashi, R., & Okuhira, M. The independent living movement in Asia: Solidarity from Japan. *Disability & Society*, 2008. P – 429.
9. Gordon, J. Japan's School Education Act, Edu press, 2009. P – 124.
10. Hayashi, A., & Tobin, J. Contesting visions at a Japanese school for the deaf. *Anthropology & Education Quarterly*, 2015. P – 380.
11. Haynes, C., Hook, P., Macaruso, P., Muta, E., Hayashi, Y., Kato, J., & Sasaki, T. Teachers' ratings of children with learning disabilities: a comparison of the United States and Japan, 2000. P – 215.
12. Tsuchiya, M. The deaf Japanese and their self identity. W: C.J. Erting, R.C. Johnson, D.L. Smith, B.D. Snider, *The Deaf Way: Perspectives from the International Conference on Deaf Culture*. Washington: Gallaudet University Press, 1994. P – 68.
13. Reader, G.T. Some notes on the blind of Japan. *Journal of Visual Impairment & Blindness*, 1916. P – 17.
14. Akiba, U. The blind in Japan. *Journal of Visual Impairment & Blindness*, 1927. P – 20.

15. Woodward, J. & Ono, Y. Mathematics and academic diversity in Japan. *Journal of Learning Disabilities*, 2004. P – 82.
16. Agran, M., Wehmeyer, M., Cavin, M., & Palmer, S. Promoting Active Engagement in the General Education Classroom and Access to the General Education Curriculum for Students with Cognitive Disabilities. *Education and Training in Autism and Developmental Disabilities*, 2010. P – 174.
17. McLaughlin, M. J. Evolving interpretations of educational equity and students with disabilities. *Exceptional Children*, 2010. P – 278.